

QO'SHTEPA TUMANI SUV RESURLARIDAN OQILONA FOYDALANISH MASALALARI

Abduraximov Fazliddin Xomidjon o'g'li

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti Geografiya va tabiiy resurslar fakulteti Geografiya (o'rganish obyekti bo'yicha) mutaxassisligi magistranti

Annotatsiya. Hozirgi kunda qishloq xo'jaligida suvdan oqilona foydalanish ko'plab mamlakatlar oldida turgan dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Chunki global isish oqibatida daryo va soylarning asosiy manbai hisoblangan muzliklar maydoni keskin kamayib bormoqda. Albatta, bunday muammolar bizning mamlakatimizni ham chetlab o'tgani yo'q. Hozirgi kunda mamlakatimizning ko'plab hududlarida suv tanqisligi muammosi yuzaga kelmoqda, bunday muammolarni keng qamrovda avj olmasligi uchun hozirdan suvdan foydalanishda zamonaviy suv tejoychi texnologiyalarni amalda qo'llash talab qilinadi. Qo'shtepa tumanida ham qishloq xo'jaligida suvdan oqilona foydalanish uchun ko'plab ishlar amalga oshirishi lozim.

Kalit so'zlar: suv, suv resurslar, yer osti suvlari, kanal, tuproqlarning sho'rlanishi, meliorativ holat, .

O'zbekiston Respublikasi Orol dengizi havzasida joylashgan bo'lib, uning asosiy suv manbai Amudaryo va Sirdaryo daryolari, shuningdek, ichki daryo va soylar hamda yer osti suvlaridir. Yer usti suv resurslarining eng ko'p miqdori (90 foizga yaqin) qo'shni mamlakatlarning tog'li hududlarida hosil bo'lsa, taxminan 10 foizi mamlakat hududida hosil bo'ladi. Yildan-yilga aholi ehtiyoji uchun yer osti suvlaridan keng foydalanilmoqda. Yer osti suvlari ma'lum darajada sho'rlangan. Ammo tog' oraliq va tog' oldi botiqlarida chuchuk yer osti suvlari ham mavjud. Chuchuk yer osti suvlari asosan Farg'ona vodiysida (34,5 foiz) va Toshkent (25,7 foiz), Samarqand (18 foiz), Surxondaryo (9 foiz) va Qashqadaryo (5,5 foiz) viloyatlarida jamlangan. Qolgan hududlardagi chuchuk suv jami 7 foizni tashkil qiladi [2].

So'nggi yillarda yer va suv resurslaridan samarali foydalanish, suv resurslarini boshqarish tizimini takomillashtirish, suv xo'jaligi obyektlarini modernizatsiya qilish va rivojlantirish bo'yicha izchil islohotlar amalga oshirilmoqda. Shu bilan birga, global iqlim o'zgarishi, aholi sonining va iqtisodiyot tarmoqlarining o'sishi, ularning suvga bo'lgan talabi yil sayin oshib borishi tufayli suv resurslarining taqchilligi yildan-yilga

Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 10 июлдаги “Ўзбекистон Республикаси сув хўжалигини ривожлантиришнинг 2020 — 2030 йилларга мўлжалланган Концепциясини тасдиқлаш тўғрисида” 6024-сонли фармони. Тошкент, 2020. 1-бет.

15 yil ichida aholi jon boshiga suv ta'minoti 3048 kub metr dan 1589 kub metrga qisqardi. Shu bilan birgalikda, respublikada aholi soni yiliga oshib borishi, ularning o'z navbatida sifatli suvga bo'lgan talabini ortishiga olib keladi. Bu esa har qanday hududdagi suv resurslardan oqilona foydalanish va ularni tejashni taqozo etadi.

Farg'ona vodiysi viloyatlari nisbatan boshqa viloyatlarga qaraganda daryo va soylari ko'p hamda chuchuk yer osti suv zaxiralariga ega bo'lishiga qaramasdan yildan yilga suv resurslari bilan bog'liq muammolar yuzaga kelmoqda. Qo'shtepa tumani iqtisodiyoti qishloq xo'jaligiga ixtisoslashganligi sababli suv resurslarining ahamiyati juda katta.

Qo'shtepa tumani Farg'ona viloyatining shimoli-sharqida joylashgan bo'lib, shimoldan Yozovon, sharqdan Toshloq, janubdan Farg'ona hamda g'arb va janubi-g'arbdan Oltiariq tumani bilan chegaradosh. Tuman ekin maydonlarining suvga bo'lgan ehtiyojini asosan tuman markazidan o'tgan Katta Farg'ona kanali, qisman tuman janubidan o'tgan Janubiy Farg'ona hamda tumanning shimoli-g'arbidan o'tgan Katta Andijon kanali orqali qondiriladi. Shu bilan bilan birga, aholi iste'molidagi suvlarning asosiy qismi yer osti suvlari hisoblanadi.

Katta Farg'ona kanali Farg'ona vodiysida qurilgan eng yirik gidrotexnika inshootlaridan biri bo'lib, O'zbekiston (283 km), Tojikiston (62 km) va Qirg'iziston (13 km) davlatlari hududlaridan o'tadi. Kanal suvi O'zbekistonda 3 viloyat (Andijon viloyatida 66,6 ming ga, Namangan viloyatida 12 ming ga, Farg'ona viloyatida 125 ming ga) yerlarni sugorishda foydalaniladi [3]. Katta Farg'ona kanali Qo'shtepa tumanini shimoli-sharqdan janubi-g'arbgacha 23 km masofada kesib o'tadi.

Suv resurslaridan oqilona foydalanmaslik va agrotexnika qoidalariga rioya qilmaslik tuproqlarning sho'rlanishiga, yerlarning meliorativ holatining yomonlashishiga olib kelmoqda. Meliorativ holati yomon yerlar Qo'shtepa tumanida ham mavjud bo'lib, 79 gektarni tashkil qiladi.

Farg'ona viloyatining 9 ta tumanida (Dang'ara, Beshariq, Furqat, Buvayda, Bog'dod, Qo'shtepa, Toshloq, Yozyovon, Uchko'prik) jami sug'oriladigan yerlari turli darajada sho'rlangan. Qo'shtepa tumanda jami sug'oriladigan yerlarning 69 % turli darajada sho'rlangan bo'lsa, sho'rlanmagan tuproqlar 31% ni tashkil etadi. Qo'shtepa tumani sug'oriladigan yerlarning 32,2 % yerlari kuchsiz sho'rlangan, 35,3 % yerlari o'rtacha sho'rlangan, 1% yerlari kuchli sho'rlangan va 0,5 % juda kuchli sho'rlangan[4].

Qo'shtepa tumanida aholi soni va uning ehtiyojlari yildan yilga ortib bormoqda, buning natijasida suv resurslariga bo'lgan talab ortib boradi. kelajakda suv bilan bog'liq muammolar kelib chiqmasligi uchun suv resurslarini hozirdan tejash lozim. Qo'shtepa tumani yerlarining katta qismi qishloq xo'jaligida foydalaniladi. Demak, suv resurslari ham shunga monand ravishda ko'p miqdorda sarf qilinadi. Suvdan tejab

foydalanish kelajakda suv va boshqa muammolar yuzaga kelmasligi uchun qo‘yilgan asosiy qadamdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 10 июлдаги “Ўзбекистон Республикаси сув хўжалигини ривожлантиришнинг 2020 — 2030 йилларга мўлжалланган Концепциясини тасдиqlаш тўғрисида” 6024-сонли фармони. Тошкент, 2020.

2. Атроф-муҳит ҳолатининг шарҳи. Ўзбекистон. Иккинчи шарҳ. Бирлашган миллатлар ташкилоти. Нью-Йорк ва Женева, 2010.

3. Ўзбекистон Миллий энциклопедияси. 4–жилд. Тошкент, 2002.

4. Ўзбекистон суғориладиган ерларининг мелиоратив ҳолати ва уларни яхшилаш бўйича илмий-амалий тавсиялар / Ўзбекистон Республикаси ер ресурслари, геодезия, картография ва давлат кадастри давлат қўмитаси. М.И.Рузметов, Р.Қ.Қўзиев, О.А.Жабборов, С.А.Абдуллаев, З.А.Жаббаров, Ж.Б.Мусаев, А.С.Пулатов, А.Ж.Эргашев, З.Х.Саломов, Ш.В.Агзамова, М.А.Мирзабоева, У.Х.Нурматов, М.Р.Кунгиров, Ж.Деҳқонов. Тошкент, “Университет”, 2018. - 311 бет.